

№ S/5 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Кайпова Малика Дауытбай қизи</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ	9-13
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА	14-19
<i>Aminov Xurmatbek Baxram o'g'li</i> HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR	20-25
<i>Мустафоев Жонибек Аралбоевич</i> “ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	26-31
<i>Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li</i> O'ZBEKİSTON TARİXİY TARAQQIYOTNING ZAMONAVİY BOSQİCHIDA İJTİMOİY DAVLATNI SHAKLLANTIRİSHNING KONSTITUTSIYAVİY İSTİQBOLLARI	32-36
<i>Маҳмудон Эркин Асқаралиевич</i> АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРГОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР	37-45
<i>Назаров Комил Шамсуддинович</i> ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ	46-51

MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI

<i>Mamajonov Rahimjon Akramovich</i> O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	52-58
--	-------

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Остонокулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жўма ўғли</i> ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАГЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ	59-69
---	-------

Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich

DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN	70-75
--	-------

Хамраев Джамишид Панжиевич

ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛANIШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ	76-81
--	-------

Кулибоев Азамат Шоназарович

ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛАНТИРИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	82-91
--	-------

Axmedova Nazokat Zikirillo qizi

KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI	92-97
--	-------

<i>Саатмуротов Шоҳруҳ</i>	
МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i>	
АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121

<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i>	
DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAQATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129

<i>Қодиров Азизжон Анварович</i>	
«COVID-19» ИНҚИРОЗИННИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i>	
JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145

<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G'OVYALARI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA	146-151

<i>Орзиеев Иқболжон</i>	
АҲБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALAR LARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israel Mukaddas Irgashevna</i>	
BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDA O'RGANISH USULLARI	166-172

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i>	
A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178

<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i>	
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184

<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i>	
O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189

<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i>	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ХУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abdusalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i>	
THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLEARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i>	
KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i>	
XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i>	
PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI	316-322

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

**O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOIY
DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI**

Annatatsiya. Muallif maqolada O'zbekistonda ijtimoiy davlatning xususiyatlari yoritilgan. O'zbekiston respublikasidagi amalga oshirilgan ijtimoiy islohatlar "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftari" larning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy davlat, konstitutsiya, strategiya, ayollar daftari, temir daftari, yoshlar daftari, mahallabay, xonadonbay.

Yunuskhojayev Habibulla Zafar ugli.
Independent researcher of UrDU

**CONSTITUTIONAL PROSPECTS OF SOCIAL STATE FORMATION AT THE MODERN STAGE
OF UZBEKISTAN'S HISTORICAL DEVELOPMENT**

Abstract. The author's article describes the features of the welfare state in Uzbekistan. The importance of social reforms implemented in the Republic of Uzbekistan "Youth Book", "Women's Book", "Iron Book" has been shown.

Keywords. Social state, constitution, strategy, women's register, iron register, youth register, neighborhood, household.

Юнусходжаев Хабибулла Зафар угли
Независимый исследователь УрДУ

**КОНСТИТУЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО
ГОСУДАРСТВА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация. В авторской статье описаны особенности социального государства в Узбекистане. Показана важность социальных реформ, реализуемых в Республике Узбекистан «Молодежная книга», «Женская книга», «Железная книга».

Ключевые слова. Социальное государство, конституция, стратегия, женский регистр, железный регистр, молодежный регистр, район, домохозяйство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N05>

Yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining referendum orqali qabul qilinishi O'zbekiston xalqi hayotidagi muhim tarixiy voqelik bo'ldi. Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning har bir sohadagi tashabbuslari va qat'iy siyosiy irodasi bilan Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan va Taraqqiyot strategiyasi asosida davom etayotgan keng qamrovli islohotlar va sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy davlat qurishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunday ulkan o'zgarishlarga nafaqat xalqimiz bevosita guvoh bo'lib turibdi, balki jahon hamjamiyati ham e'tirof qilmoqda. Bu boradagi amaliy natijalar xususida, jumladan ijtimoiy sohaga doir bir qator asosiy jihatlarni keltirib o'tish o'rinnlidir. Xususan, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullarini olaylik. Bunda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratish, aholining bandligini ta'minlash va uning daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatli tizim orqali yordam ko'rsatishga alohida e'tibor berilmoqda. Ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, bolalar, ayollar, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda[1].

Ko'p yillardan beri aholini qiyab kelgan muammolarni tizimli yechish maqsadida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi, aholining murojaatlari davlat organlari faoliyatining diqqat markazida bo'ldi.

2022-yilda tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lman darajaga olib chiqildi. 2017 yilda 500 mingta kam ta'minlangan oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilaga ko'mak berilmoqda. Bu borada ajratilayotgan mablag'lar 7 barobar ko'payib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi[2]. Bu bilan kifoyalanmay, ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosati izchil davom ettirilmoqda. Albatta, ularning barchasining ortida inson qadri, uni e'zozlash, hayotdan, davlatdan rozi qilish yo'lidagi oliy maqsadlar turibdi.

Oxirgi yetti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingdan ortiq yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurilgani, yangi maktablarda qo'shimcha 500 ming o'quvchi o'rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetgani ham fikrimizning yorqin ifodasidir[3].

Aholimiz salomatligini saqlash uchun eng chekka qishloq, mahallalar, eng olis hudud darajasigacha barcha tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda va bu boradagi amaliy faoliyat davom ettirilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida davlat xizmatchilari sonini bosqichma-bosqich 30-35 foizga qisqartirish va iqtisod qilinadigan mablag'larni ijtimoiy masalalarga yo'naltirish haqida to'xtalganlari ham ijtimoiy sohaga e'tibor ko'lami yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Bir so'z bilan aytganda barcha islohotlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar "Inson qadri uchun", "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Davlat – inson uchun", "Inson – jamiyat – davlat" degan xalqchil tamoyillar asosida olib borilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston intilayotgan ijtimoiy davlat qanday va qay shaklda bo'lishi lozim?

Ijtimoiy davlat – insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g'oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Uning asosini davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o'z hokimiyyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta'minlashi lozim. Bunda inson kamoloti davlat ravnaqi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda bayon etilgan talqinga ko'ra, ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, o'z fuqarolarining farovonligi, ijtimoiy himoyalanganligi xususida g'amxo'rlik qiladigan davlatdir. Bunday davlat o'z faoliyatini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj sinflari: ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, bolalar, keksalarni ijtimoiy himoyalash bilan uzviy shaklda olib boradi.

Ijtimoiy davlatdagi ijtimoiy siyosatning asosiy konstitutsiyaviy asoslari, dastavval, insonlarni ish bilan ta'minlash va mehnat muhofazasi; mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini kafolatlash bilan izohlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri)ning 42-moddasida: "*Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdorida kam bo'lмаган tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi*"[4], deya e'tirof etilgan.

Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli[5] ekanligi ijtimoiy davlatning asosiy funksional majburiyatlaridan biridir.

Oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida bo'lishi hamda qo'llab-quvvatlanishi davlatning ijtimoiy siyosatining yana bir bo'g'ini, deyishimiz mumkin. Masalan, Bosh Qomusimizda: "*Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi*"[6] degan huquqiy norma mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, ijtimoiy davlatchilik prinsiplarida nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnatga layoqatsizlar va keksalarga g'amxo'rlik qilish, turli ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish ham o'rin oladi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 57-moddasida "*Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir...Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqiniksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi*"[7] belgilab berilgan.

Shulardan kelib chiqib, O'zbekistonda ijtimoiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy xususiyatlari sifatida quydagilarni e'tirof etish mumkin:

- kuchli ijtimoiy himoya siyosati;
- ta'lim sifati yuqori darajada ta'minlash hamda uni insonparvarlik, xalqparvarlik, inson huquq va erkinliklariga rioya etishga yo'naltirish;
- kuchli jamoatchilik nazorati;
- fuqarolik jamiyatni institutlari mavqeyi va ta'siri kuchaytirish;
- barcha davlat organlari va tashkilotlarining ochiqligi, inson va jamiyat (jamoatchilik) oldida mas'ulligi, ijtimoiy javobgarligini oshirish;
- korrupsiya illatiga qarshi kurash, uning barcha ko'rinishlarini ijtimoiy hayotimizdan chiqarib tashlash yo'lida hamkorlik qilish;
- halol, sidqidildan ishlaydigan, kamtar, xalqparvar, samimiy va fidoyi davlat xizmatchilarining yangi avlodini shakllantirish.

So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda "davlat – jamiyat – inson" tamoyilini yangi "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirib, konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash, eng avvalo, inson manfaatini har narsadan ustun qo'yish maqsad qilingan.

Shu asosda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2021 yil 7 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan nutqida "*Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat"*"^[8], degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqt(soati yetdi" deb ta'kidlagandi.

Qayd etish lozimki, ijtimoiy davlat – sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat modelidir.

Xalqimizning umumiy ovozi – referendum asosida qabul qilingan Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilindi. Davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravarga ko'paytirildi. Natijada inson va fuqarolarning konstitutsion normalar orqali kafolatlangan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa huquqi hamda erkinliklari, o'z navbatida, mos ravishda davlatning tegishli majburiyati bilan mustahkamlandi. Bu esa, o'z navbatida, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan natijalar va Taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam konstitutsion himoyani ta'minlash, huquq va erkinliklardan kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun ular Konstitutsiyada muhrlab qo'yildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ижтимоий давлатнинг конституциявий асослари // <https://xs.uz/uzkr/post/izhtimoij-davlatning-konstitutsiyavij-asoslari>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ижтимоий ҳимояга муҳтоҷ аҳоли қатламларини моддий қўллаб-куватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" Фармони, Конун ҳужжатлари миллий базаси. 29.04.2022 йилдаги ПФ-128-сон. <https://lex.uz/ru/docs/-5989603>
3. Ўзбекистон Республикаси мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги маълумотлари // <https://uzedu.uz/y3>

4. Tadjixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.
— Т.: «Sharq», 2001, 105-bet.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2018. - 52 б.
6. Tadjixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.
— Т.: «Sharq», 2001, 108-bet.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2018. - 46 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 29 йиллигига бағишланган нутқида // www.president.uz <https://cyberleninka.ru/article/n/diniy-va-dunyoviy-manbalarda-suvning-inson-va-tabiat-olamida-tutgan-rni>
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5cRejVsAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=5cRejVsAAAAJ:u5HHmVD_uO8C.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).